Buchner va hammualliflar (2021) yashil moliyalashtirish tizimining samaradorligi ko'p jihatdan institutsional muvofiqlashtirish, shaffoflik va monitoring mexanizmlarining rivojlanganlik darajasiga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi [4]. Mualliflarning fikriga ko'ra, yashil investitsiyalarni samarali boshqarish uchun davlat organlari, moliyaviy institutlar va xususi sektor o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Volz (2018) rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda yashil obligatsiyalar bozorining shakllanish jarayonini tahlil qilib, ushbu bozorda davlat kafolatlari, xalqaro moliya institutlari ishtiroki hamda barqaror normativ-huquqiy muhit hal qiluvchi omillardan biri ekanligini asoslab beradi [5]. Tadqiqotda yashil obligatsiyalar bozori investitsiyalarni diversifikatsiya qilish va uzoq muddatli ekologik loyihalarni moliyalashtirishda samarali vosita sifatida baholanadi.

Markaziy Osiyo mintaqasida ushbu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlar nisbatan cheklangan. Asliddinov va Karimov (2022) O'zbekistondagi energetika investitsiya tizimining tarkibiy cheklovlarini o'rganib, qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini moliyalashtirishda institutsional mexanizmlarni takomillashtirish zarurligini qayd etgan [6].

OECD tomonidan 2023-yilda chop etilgan "Financing the Green Transition in Uzbekistan" hisobotida O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini moliyalashtirish bilan bog'liq muammolar keng qamrovli tahlil qilinadi [3]. Hisobotda kapital bozorlari rivojlanishining hozirgi holati, yashil obligatsiyalar chiqarish imkoniyatlari hamda xususi kapitalni jalb etishdagi mavjud institutsional to'siqlar alohida ko'rib chiqilgan.

Shuningdek, UNDP, AFD hamda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamkorligida 2023-yilda tayyorlangan "Climate Public Expenditure and Institutional Review (CPEIR)" hisobotida iqlim xarajatlarini davlat byudjeti jarayoniga integratsiya qilishdagi dolzarb muammolar tahlil qilingan [7]. Mazkur hujjatda iqlim xarajatlarini identifikatsiya qilish, monitoring qilish va natijadorlikni baholash tizimlarini takomillashtirish zarurligi ta'kidlangan.

Worldly Journals nashrida chop etilgan ilmiy maqolada O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishning innovatsion mexanizmlari o'rganilib, davlat-xususi sheriklik (DXSh), yashil obligatsiyalar hamda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik asosiy moliyaviy vositalar sifatida ko'rsatilgan [8]. Mualliflar ushbu mexanizmlar yashil loyihalarni moliyalashtirish hajmini kengaytirish va investitsion faollikni oshirishga xizmat qilishini qayd etadilar.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda hujjatli tahlil, qiyosiy-statistik tahlil hamda tizimli yondashuv metodlarining uyg'unlashgan shaklidan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi yashil loyihalarni moliyalashtirish boshqaruvining institutsional samaradorligini kompleks baholashga yo'naltirildi.

Hujjatli tahlil jarayonida O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanishga oid normativ-huquqiy hujjatlari, strategik dasturlari va davlat qarorlari o'rganildi. Xususan, "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi 2019–2030", davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishga oid hujjatlar hamda yashil obligatsiyalar chiqarilishi bilan bog'liq me'yoriy asoslar tahlil qilindi.

Qiyosiy-statistik tahlil yordamida 2019–2025-yillar davomida yashil moliyalashtirish ko'rsatkichlari, investitsiyalar hajmi, qayta tiklanuvchi energiya loyihalariga yo'naltirilgan mablag'lar, yashil obligatsiyalar emissiyasi va iqlim xarajatlari dinamikasi o'rganildi. Statistik ma'lumotlar asosida O'zbekistonning yashil moliyalashtirish tizimi xalqaro tajriba bilan qiyosiy baholandi.

Tizimli yondashuv orqali yashil moliyalashtirish boshqaruvi davlat organlari, xalqaro moliya institutlari, tijorat banklari, xususiy investorlar va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari o'rtasidagi o'zaro bog'liq institutsional tizim sifatida tahlil qilindi. Ushbu yondashuv yashil moliyalashtirishdagi mavjud institutsional zaifliklar va boshqaruv muammolarini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotda foydalanilgan asosiy birlamchi va ikkilamchi manbalar quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari;
- O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining yashil obligatsiyalar bo'yicha taqsimot va ta'sir hisobotlari [9];
- OECD [3];
- Asian Development Bank (ADB) [10];
- Jahon banki [11];
- UNDP [7];
- International Monetary Fund (IMF) [12] tahliliy materiallari.

Moliyaviy ko'rsatkichlarning ayrim qismi xalqaro moliya institutlari tomonidan e'lon qilingan hisobotlar hamda O'zbekiston hukumati rasmiy press-relizlari asosida shakllantirildi.

Tadqiqotning vaqt doirasi 2019–2025-yillarni qamrab oladi. Geografik qamrov sifatida O'zbekiston Respublikasi tanlandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda yashil moliyalashtirish boshqaruvining institutsional asosini bir qator muhim strategik va normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etadi. Xususan, 2019-yilda Prezident farmoni bilan tasdiqlangan "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi 2019–2030" doirasida 2030-yilgacha issiqxona gazlari emissiyasini 2010-yil darajasiga nisbatan 35 foizga qisqartirish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini elektr energiyasi ishlab chiqarish tarkibida 40 foizga yetkazish vazifalari belgilangan [2]. Mazkur strategik maqsadlar keyinchalik "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasi 2022–2026 [13] va "O'zbekiston – 2030" strategiyasida ham ustuvor yo'nalish sifatida mustahkamlandi.

Iqlim siyosati va yashil moliyalashtirish jarayonlarini muvofiqlashtirish maqsadida sohalararo idoralararo kengash tashkil etilgan bo'lib, Iqtisodiyot va moliya vazirligi uning ishchi organi sifatida faoliyat yuritmoqda. Donor tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish va texnik-moliyaviy yordamni jalb qilish maqsadida alohida muvofiqlashtirish guruhi ham shakllantirilgan [14].

UNDP va AFD hamkorligida 2022–2023-yillarda O'zbekistonda ilk bor iqlim byudjeti belgilash (climate budget tagging) amaliyoti joriy qilindi hamda uning natijalari "Fuqarolar byudjeti" nashriga integratsiya qilindi [15]. Ushbu mexanizm iqlim xarajatlarini monitoring qilish va ularning shaffofligini oshirish yo'nalishidagi muhim institutsional qadam sifatida baholanadi.

Shu bilan birga, tahlillar normativ-huquqiy bazada ayrim institutsional cheklovlar mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, yashil moliyalashtirish sohasini kompleks tartibga soluvchi yagona maxsus qonunchilik hujjati hali shakllanmagan. Natijada vakolat va funksiyalar turli vazirlik hamda idoralar o'rtasida taqsimlangan bo'lib, bu ayrim hollarda sohalararo muvofiqlashtirish samaradorligiga ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekiston so'nggi yillarda yashil obligatsiyalar bozorini rivojlantirish bo'yicha Markaziy Osiyodagi faol mamlakatlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Mazkur yo'nalishdagi muhim bosqichlardan biri 2021-yil avgust oyida amalga oshirildi. Xususan, O'zbekiston mintaqada birinchi bo'lib 235 mln AQSH dollariga teng sovereign SDG (Barqaror rivojlanish maqsadlari) obligatsiyalarini xalqaro moliya bozoriga joylashtirdi. Ushbu mablag'lar ta'lim, sog'liqni saqlash, suv resurslarini boshqarish, yashil transport, chiqindilarni boshqarish va qayta tiklanuvchi energiya kabi yetti ustuvor yo'nalishdagi loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirildi [16].

2023-yil oktabr oyida esa O'zbekiston London fond birjasida 4,25 trln so'mlik birinchi yashil suveren evroobligatsiyalarni muvaffaqiyatli joylashtirdi va 30 dan ortiq xalqaro investorlarni jalb etdi [17]. UNDP



ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil dekabr holatiga ushbu obligatsiyalar hisobidan shakllangan mablag'lar to'liq taqsimlangan bo'lib, ular ichimlik suvi infratuzilmasini modernizatsiya qilish, suvni tejavchi texnologiyalarni joriy etish hamda himoya o'rmonlarini kengaytirish loyihalariga yo'naltirilgan [9].

Shuningdek, Sustainalytics tashkiloti tomonidan 2025-yilda tayyorlangan mustaqil baholash hisobotida O'zbekistonning 2023-yilgi yashil obligatsiyalari ICMA (International Capital Market Association) tomonidan belgilangan Yashil obligatsiyalar tamoyillariga muvofiq ekani tasdiqlandi [18]. Mazkur holat O'zbekistonning xalqaro yashil moliya bozorlari bilan integratsiyalashuv jarayonida muhim institutsional ishonch omili sifatida baholanadi (1-jadval).

### 1-jadval. O'zbekiston yashil va tematik obligatsiyalar chiqarish tarixi, (2021–2023)

Yil	Obligatsiya turi	Hajmi	Moliyalashtirilgan sohalar
2021	Sovereign SDG obligatsiyasi	\$235 mln	Ta'lim, suv, salomatlik, yashil transport, energiya
2023 (1)	Sovereign yashil obligatsiya (korporativ)	Maxfiy	Yashil infratuzilma loyihalari
2023 (2)	Yashil sovereign evroobligatsiya (London birjasi)	4,25 trln so'm	Suv infratuzilmasi, o'rmon, suvtejavsh texnologiyalari

Manba: UNDP [17]; OECD [3]; Moliya vazirligi [9]; Sustainalytics [18] asosida muallif tuzgan.

Yashil loyihalarni moliyalashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmi orqali qayta tiklanuvchi energetika sohasiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish hisoblanadi. OECD (2025) ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston 2030-yilgacha 21 GvT qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarini ishga tushirish hamda elektr energiyasi ishlab chiqarish tarkibida qayta tiklanuvchi manbalar ulushini 54 foizga yetkazishni rejalashtirmoqda. 2024-yil holatiga ko'ra, 2 567 MVt quyosh va 900 MVt shamol energetikasi quvvatlari xorijiy investorlar ishtirokida rivojlantirish bosqichida bo'lgan [10].

Mazkur loyihalarning asosiy qismi uzoq muddatli davlat kafolatlangan elektr energiyasini xarid qilish shartnomalari (Power Purchase Agreement — PPA) asosidagi DXSh modeli doirasida amalga oshirilmoqda. Ushbu mexanizm investorlar uchun moliyaviy barqarorlik va investitsion ishonchlilikni ta'minlashda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda.

Amaliyotda muhim natijalarga erishilgan. Xususan, 2022-yilda BAAning MASDAR kompaniyasi Samarqand viloyatida 500 MVt quvvatga ega quyosh elektr stansiyasini qurish bo'yicha DXSh tanlovida g'olib deb topildi [11]. Shuningdek, 2024-yil dekabr oyida Jahon banki tomonidan Xorazm viloyatida Fransiyaning Voltalia kompaniyasi tomonidan amalga oshirilayotgan 100 MVtlik quyosh elektr stansiyasi loyihasi uchun 3,5 mln AQSH dollari miqdorida to'lov kafolati ajratildi [19].

Bundan tashqari, Asian Development Bank (ADB) ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil yanvar holatida O'zbekistonda quyosh energetikasiga oid beshta faol loyiha bevosita ADB investitsiyalari asosida amalga oshirilmoqda [10]. Ushbu loyihalar mamlakatda qayta tiklanuvchi energetika infratuzilmasini kengaytirish va yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini jadallashtirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, IMF (2025) baholashlariga ko'ra, DXSh loyihalari portfelining jadal kengayishi boshqaruv va fiskal barqarorlik nuqtai nazaridan qo'shimcha institutsional ehtiyot choralarini talab etmoqda. Xususan, 2021-yil oxirida umumiy qiymati 6,2 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan 200 dan ortiq DXSh loyihalari mavjud bo'lgan bo'lsa, 2024-yil oxiriga kelib ushbu ko'rsatkich 31 mlrd AQSH dollariga, ya'ni mamlakat YalMining qariyb 27 foiziga yetgan [12]. 2025–2030-yillar davomida amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan yangi loyihalar hajmi esa qo'shimcha 30,2 mlrd AQSH dollarini tashkil etishi kutilmoqda [12] (2-jadval).

### 2-jadval. O'zbekistonda DXSh portfelining dinamikasi va boshqaruv xavflari, (2021–2024)

Ko'rsatkich	2021-yil oxiri	2024-yil oxiri	Izoh / Xavf
DXSh loyihalari umumiy qiymati	~\$6,2 mlrd (~8% YalM)	~\$31 mlrd (~27% YalM)	Keskin o'sish, moliyaviy risklar ortadi
Energetika ulushi	Ma'lum emas	93% (\$28,8 mlrd)	Markazlashuv riski — yashil diversifikatsiya zaif
2023-yilgi yangi imzolar	—	\$1,6 mlrd (6 shartnoma)	Markaziy Osiyo va MDH bo'yicha yangi DXShlarning ~40%i
2025-yil DXSh cheklovi (yangi)	—	\$6,5 mlrd	IMF tavsiyasi asosida byudjetga kiritildi

Manba: IMF [12]; Jahon banki [11]; ADB [10] hisobotlari asosida muallif tuzgan.



Yashil loyihalarni moliyalashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmi orqali qayta tiklanuvchi energetika sohasiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish hisoblanadi. OECD (2025) ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston 2030-yilgacha 21 GVt qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarini ishga tushirish hamda elektr energiyasi ishlab chiqarish tarkibida qayta tiklanuvchi manbalar ulushini 54 foizga yetkazishni rejalashtirmoqda. 2024-yil holatiga ko'ra, 2 567 MVt quyosh va 900 MVt shamol energetikasi quvvatlari xorijiy investorlar ishtirokida rivojlantirish bosqichida bo'lgan [10].

Mazkur loyihalarning asosiy qismi uzoq muddatli davlat kafolatlangan elektr energiyasini xarid qilish shartnomalari (Power Purchase Agreement — PPA) asosidagi DXSh modeli doirasida amalga oshirilmoqda. Ushbu mexanizm investorlar uchun moliyaviy barqarorlik va investitsion ishonchlikni ta'minlashda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda.

Amaliyotda muhim natijalarga erishilgan. Xususan, 2022-yilda BAAning MASDAR kompaniyasi Samarqand viloyatida 500 MVt quvvatga ega quyosh elektr stansiyasini qurish bo'yicha DXSh tanlovida g'olib deb topildi [11]. Shuningdek, 2024-yil dekabr oyida Jahon banki tomonidan Xorazm viloyatida Fransiyaning Voltalia kompaniyasi tomonidan amalga oshirilayotgan 100 MVtlik quyosh elektr stansiyasi loyihasi uchun 3,5 mln AQSH dollari miqdorida to'lov kafolati ajratildi [19].

Bundan tashqari, Asian Development Bank (ADB) ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil yanvar holatida O'zbekistonda quyosh energetikasiga oid beshta faol loyiha bevosita ADB investitsiyalari asosida amalga oshirilmoqda [10]. Ushbu loyihalar mamlakatda qayta tiklanuvchi energetika infratuzilmasini kengaytirish va yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini jadallashtirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, IMF (2025) baholashlariga ko'ra, DXSh loyihalari portfelining jadal kengayishi boshqaruv va fiskal barqarorlik nuqtai nazaridan qo'shimcha institutsional ehtiyot choralarini talab etmoqda. Xususan, 2021-yil oxirida umumiy qiymati 6,2 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan 200 dan ortiq DXSh loyihalari mavjud bo'lgan bo'lsa, 2024-yil oxiriga kelib ushbu ko'rsatkich 31 mlrd AQSH dollariga, ya'ni mamlakat YalMining qariyb 27 foiziga yetgan [12]. 2025–2030-yillar davomida amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan yangi loyihalar hajmi esa qo'shimcha 30,2 mlrd AQSH dollarini tashkil etishi kutilmoqda [12].

IMF ekspertlari ushbu tezkor o'sish sharoitida DXSh loyihalari ustidan nazorat mexanizmlarini kuchaytirish, davlat kafolatlari va majburiyatlarini monitoring qilish hamda yalpi DXSh majburiyatlari uchun aniq fiskal cheklovlarni joriy etish zarurligini ta'kidlaydilar [12]. Bu esa yashil loyihalarni moliyalashtirish boshqaruvi samaradorligini oshirishda institutsional nazorat va risklarni boshqarish tizimlarini yanada takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda yashil moliyalashtirish boshqaruvi bir vaqtning o'zida ikki o'zaro bog'liq tendensiyani namoyon etayotganini ko'rsatadi. Bir tomondan, 2021–2023-yillarda yashil obligatsiyalarni muvaffaqiyatli joylashtirish hamda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlari orqali qayta tiklanuvchi energetika sohasiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish borasida erishilgan natijalar Markaziy Osiyo mintaqasi uchun muhim institutsional yutuq sifatida baholanishi mumkin. Jahon banki (2023) qayd etganidek, 2022-yil dekabr oyida yashil iqtisodiy o'sishning strategik asoslarini mustahkamlashga qaratilgan Prezident farmoyishining qabul qilinishi mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi [21].

Ikkinchi tomondan, iqlim xarajatlarini boshqarish tizimidagi mavjud institutsional cheklovlar hamda DXSh portfelining tez sur'atlarda kengayib borishi sharoitida nazorat mexanizmlarining rivojlanishi nisbatan sust kechayotgani uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikka ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayniqsa, davlat kafolatlari hajmining ortishi va yirik energetika loyihalarining ko'payishi fiskal risklarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, yashil moliyalashtirish boshqaruvining samarali tizimlarida uchta asosiy element muhim o'rin tutadi:

1. iqlim xarajatlarini davlat byudjeti siklida majburiy tarzda belgilash va monitoring qilish (Tailand va Filippin tajribasi);
2. yashil taksonomiyaning normativ-huquqiy jihatdan mustahkamlanganligi (Yevropa Ittifoqi va Xitoy tajribasi);
3. xususiy investorlar uchun soliq imtiyozlari hamda risklarni kamaytiruvchi moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining rivojlanganligi [4-5].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda ushbu elementlarning birinchisi — iqlim xarajatlarini belgilash va monitoring qilish tizimi — bosqichma-bosqich shakllanmoqda. Biroq yashil taksonomiyaning to'liq huquqiy asosini yaratish hamda xususiy investorlarni rag'batlantirish mexanizmlarini kengaytirish yo'nalishlarida hali qo'shimcha institutsional choralar talab etiladi.

ADB (2025) ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston energetika sohasida DXSh mexanizmlarini qo'llash bo'yicha muhim amaliy tajriba to'plagan. Xususan, Sherobod va boshqa quyosh energetikasi loyihalari doirasida ishlab chiqilgan tender hujjatlari, tranzaksion maslahat xizmatlari va investitsion standartlar keyingi loyihalar uchun



institutsional asos vazifasini bajarmoqda [10]. Ushbu tajribani suv xo'jaligi, yashil transport, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik ishlab chiqarish kabi boshqa yashil iqtisodiyot yo'nalishlariga ham tatbiq etish yashil moliyalashtirish boshqaruvi samaradorligini yanada oshirishga xizmat qilishi mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston yashil loyihalarni moliyalashtirish boshqaruvinu rivojlantirish yo'nalishida muhim institutsional poydevorni shakllantirishga erishdi. Xususan, mamlakat yashil obligatsiyalar bozori bo'yicha Markaziy Osiyoda yetakchi pozitsiyani egalladi, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asosida qayta tiklanuvchi energetika sohasida yirik investitsion portfelni shakllantirdi hamda iqlim xarajatlarini belgilash (climate budget tagging) tizimini bosqichma-bosqich joriy etishni boshladi. Mazkur jarayonlar O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasining institutsional asoslari shakllanayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari yashil moliyalashtirish boshqaruvi tizimida ayrim tizimli cheklovlar mavjudligini ham ko'rsatdi. Jumladan, yillik investitsiya ehtiyojining yuqoriligi, normativ-huquqiy bazaning yetarli darajada integratsiyalanmaganligi, iqlim xarajatlarini byudjet tizimiga to'liq institutsional integratsiya qilish jarayonining yakunlanmaganligi hamda xususiy kapital bozorlari rivojlanishining cheklanganligi boshqaruv samaradorligiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Yashil moliyalashtirish bo'yicha yagona normativ-huquqiy asosni shakllantirish. Xususan, "Yashil moliyalashtirish to'g'risida"gi alohida qonun yoki "Yashil taksonomiya" hujjatini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Mazkur hujjatda yashil loyihalar mezonlari, moliyaviy vositalar, hisobot standartlari va sohalarga muvofiq lashtirish mexanizmlari yagona tizim asosida mustahkamlanishi lozim.

2. Iqlim byudjeti belgilash tizimini institutsional mustahkamlash. Iqlim xarajatlarini belgilash va monitoring qilish mexanizmlarini yillik davlat byudjeti jarayonining majburiy bosqichi sifatida joriy etish hamda uning natijalarini parlament va jamoatchilik nazoratiga taqdim etish tizimini rivojlantirish zarur.

3. DXSh mexanizmlarini boshqa yashil sohalarga kengaytirish. Energetika sohasida shakllangan muvaffaqiyatli tender va tranzaksion maslahat tajribasini suv xo'jaligi, yashil transport, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik ishlab chiqarish yo'nalishlarida ham qo'llash yashil investitsiyalar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

4. Xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish mexanizmlarini rivojlantirish. Yashil loyihalarga investitsiya kirituvchi subyektlar uchun soliq imtiyozlari, kredit kafolatlari, sug'urta va risklarni kamaytiruvchi boshqa moliyaviy vositalarni joriy etish orqali mahalliy kapital bozorini faollashtirish maqsadga muvofiqdir.

Kelgusidagi tadqiqotlarda O'zbekistondagi yashil obligatsiyalar samaradorligini xalqaro standartlar asosida miqdoriy baholash, DXSh portfelining fiskal risklarini stsenariyli modellashtirish hamda yashil investitsiyalarning iqtisodiy va ekologik ta'sirini kompleks tahlil qilish dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.10.2019-yildagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-sonli Farmoni, <https://lex.uz/docs/-4567334>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.12.2022-yildagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-sonli qarori, <https://lex.uz/uz/docs/-6303230>
3. AFD. (2022). Uzbekistan: Green Economy Support Program. Agence Française de Développement.
4. OECD. (2023). Financing Uzbekistan's Green Transition: Capital Market Development and Opportunities for Green Bond Issuance. OECD Publishing, Paris.
5. Buchner, B. K., Clark, A., Falconer, A., Macquarie, R., Meattle, C., Tolentino, R., & Wetherbee, C. (2021). Global Landscape of Climate Finance 2021. Climate Policy Initiative.
6. Volz, U. (2018). Fostering Green Finance for Sustainable Development in Asia. ADBI Working Paper No. 814. Asian Development Bank Institute.
7. Asliddinov, N., & Karimov, D. (2022). "O'zbekiston – 2030" strategiyasi: "yashil iqtisodiyot". [ResearchGate](https://www.researchgate.net/publication/360000000)
8. UNDP Uzbekistan. (2023). Climate Public Expenditure and Institutional Review: Uzbekistan. UNDP, AFD & O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.
9. Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishning innovatsion mexanizmlari. (2024). Worldly Journals – International Journal of Scientific Research. [Worldly Journals](https://www.worldlyjournals.com)
10. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2024). Green Bond Allocation and Impact Report: October 2023 Green Bond. Toshkent. [Moliya vazirligi hisoboti](https://www.moliya.gov.uz)
11. ADB Development Asia. (2025). Driving Uzbekistan's Renewable Energy Growth Through PPPs and Policy Reform.
12. World Bank. (2023). Uzbekistan: Realizing an Inclusive Green Growth Transition. Results Brief.
13. Kun.uz. (2025, 2-iyul). IMF: Uzbekistan's Public-Private Partnerships Could Burden Future Budgets.



14. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). Yangi O'zbekiston 2022–2026 taraqqiyot strategiyasi. [Prezident.uz](https://prezident.uz)
15. [UNDP Uzbekistan Press Release](#). (2024). AFD, European Union and UNDP Join Efforts to Support Green Financing in Uzbekistan.
16. [Joint SDG Fund](#). (2021). Uzbekistan's First SDG Bond Allocation and Impact Report.
17. [UNDP Uzbekistan Green Eurobond](#). (2023). Uzbekistan Issues First Ever Green Sovereign Eurobonds Worth 4.25 Trillion UZS on the London Stock Exchange.
18. [Sustainalytics Report](#). (2025). Republic of Uzbekistan Green Bond Annual Review 2025.
19. [World Bank Press Release](#). (2024, 23-dekabr). Uzbekistan to Launch a New Solar Plant in the Khorezm Region with Support from the World Bank Group.
20. [UNDP Climate Budget Integration Index](#). (2023). Climate Change Budget Integration Index Assessment: Uzbekistan.
21. [World Bank Greener Future](#). (2023, 26-oktabr). The World Bank and Uzbekistan's Ministry of Economy and Finance: Working Together for a Greener Future.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2026. № 5 (3)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>